



MANTIQUIY VA KREATIV FIKR YURITISH IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

pedagogika fanlari doktori, (Dsc) **Allayarova Soliha**
magistrant, **Yodgorova Sehriyo**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning mantiqiy va kreativ fikr yuritishini rivojlantirishda fikrlash qobiliyatini shakllantirishning nazariy shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan mantiqiy va kreativ fikr yuritishni rivojlantirish orqali maqsadga erishish va ushbu jarayondagi natijalar tahlili keltirilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические условия формирования мыслительных способностей при развитии логического и творческого мышления будущих педагогов. Также представлен анализ достижения цели и результатов в этом процессе путем развития логического и творческого мышления с помощью современных образовательных технологий.

Annotation

This article analyzes the theoretical conditions for the formation of thinking abilities in the development of logical and creative thinking of future teachers. It also presents an analysis of achieving the goal and results in this process by developing logical and creative thinking with the help of modern educational technologies.

Tayanch so'zlar: kreativ fikrlash, mantiqiy fikr yuritish, interaktiv metodlar, bo'lajak pedagog, moslashuvchanlik

Kirish

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O'quv muassasalarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun turli xil o'quv materiallari va resurslardan foydalanish talab etiladi. Bular orasida matematik masalalar, logik topishmoqlar, mantiqiy ketma-ketliklar, diagrammalar va jadvallar, shuningdek, interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar kabi turli xil shakldagi materiallar mavjuddir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. "Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi





g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir. Ushbu maqolada mantiqiy va kreativ fikr yuritish imkoniyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda metodlariga to'xtalamiz. Gumanistik psixolog Abraham Maslou kreativlik haqida o'zining eng mashhur nazariyalaridan birida kreativlikni 2 turga bo'ladi: birinchisi, istedadning kreativligi hamda ikkinchisi, shaxsning o'z o'zini aktuallashtirish kreativligidir.

Muhokama va natijalar

Mantiqiy va kreativ fikr yuritish – bu zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalardir. Mantiqiy fikr yuritish – bu tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish jarayoni hisoblanadi.. Har qanday sohada, bevosita muammolarni hal qilishda va yangi g'oyalar ishlab chiqishda bu qobiliyatlar muhim ahamiyatga ega. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkun bo'lganiday, kreativ fikirlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo'lajak pedagoglarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak pedagoglarga noodatij tarzda fikirlashga yordam beradi. Biroq, bo'lajak pedagoglarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bo'liq. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak pedagoglarda fikirlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi.

Mantiqiy fikrni rivojlantirish uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

1. Tahliliy vazifalar: Mantiqiy masalalar va vazifalarni hal qilish, shuningdek, matematik muammolarni yechish orqali bo'lajak pedagoglar tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu jarayon analitik fikrlashni mustahkamlaydi.

2. Muammo hal qilish: Turli xil muammolarni hal qilish uchun strategiyalar ishlab chiqish. Bu, masalan, rol o'ynash yoki simulyatsiya o'yinlari orqali amalga oshirilishi mumkin.



3. Muloqot va munozara: Talabalar o'rtasida muhokama va fikr almashish jarayonlari o'tkazish. Bu jarayonda har bir ishtirokchi o'z fikrini dalillash va boshqalarning fikrlarini tahlil qilishga o'rganadi.

Kreativ fikr yuritish – bu yangi g'oyalarni yaratish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish jarayoni. Kreativ fikr yuritish nafaqat san'at yoki dizayn sohalarida, balki ilm-fan, ta'lim, biznes va kundalik hayotda ham muhimdir. Bu jarayon orqali yangi yechimlar topish va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish mumkin.





Kreativ fikrni rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar qo'llanilishi mumkin:



1. **Brainstorming:** Talabalar g'oyalarni erkin muhokama qilish va takliflar berish uchun jamoaviy suhbatlar o'tkazishadi. Bu jarayon ijodiy fikrlarni rivojlantirishga yordam beradi.

2. **Ijodiy o'yinlar:** Tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar va mashqlar. Masalan, g'oya generatorlari yoki fikrlarni ko'taruvchi o'yinlar orqali ijodiy yondashuvlarni qo'llash.

3. **Interdisiplinar yondashuv:** Turli fanlar va sohalarni birlashtirish orqali yangi g'oyalar yaratish. Bu yondashuv ko'plab muammolarga innovatsion yechimlar topishga yordam beradi.

Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik ko'nikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan iboratki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin. Quyida ushbu kreativ ko'nikmalar keltirilgan:

I. **Ravonlik.** Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.

II. **Moslashuvchanlik.** Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.


III. **O'ziga xoslik.** Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

IV. **Yaratuvchanlik.** G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.





Mantiqiy va kreativ fikr yuritishni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida quyidagi turli metodlarni qo'llash mumkin:



- **Interaktiv metodlar:** Talabalar o'rtasida faol muloqotni rag'batlantirish. Guruhli ishlash va jamoaviy muhokamalar orqali fikr almashish imkoniyatini yaratish.
- **Amaliy tajriba:** Real hayotiy vaziyatlarni o'rganish va muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish. Bu jarayon talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashlariga yordam beradi.
- **Refleksiya:** O'rganilganlarni baholash va fikrlarni jamlash jarayonini tashkil etish. Bu orqali talabalar o'z o'rganganlarini tushunadilar va kelajakda qanday qo'llashni bilishadi.

Xulosa

Mantiqiy va kreativ fikr yuritish imkoniyatlarini rivojlantirish har bir inson uchun muhim vazifadir. Ushbu ko'nikmalar nafaqat ta'lim jarayonida, balki hayotning har bir sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur. Bo'lajak pedagoglarning mantiqiy va kreativ tafakkurini rivojlantirish natijasida haqiqiy kasbiy faoliyat muammolarini tushunish, ularni aniqlash usullarini o'zlashtirish, muammolarni hal qilishga imkon beradigan manbalarni izlash va shu bilan birga ta'lim tizimida tezkor fikr laydigan zamonaviy pedagoglarning yuksalishiga xizmat qiladi. Turli usullar va metodlar orqali bu fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi g'oyalar yaratish va muammolarni samarali hal qilishda yordam beradi. Rivojlangan mantiqiy va kreativ fikr, shuningdek, shaxsiy va professional muvaffaqiyatning kalitidir. Mantiqiy hamda





kreativ fikr yuritish jarayonida inson o'z fikrlarini erkin ifodalash, boshqalar bilan muloqot qilish va yangi tajribalarni sinab ko'rish mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. S. N.Allayarova G.A.Abdullaeva. [Tarbiya jarayoni sifatini kvalimetrik monitoring qilish: muammo va yechimlar](#). Современное образование. Toshkent-2019
2. Yodgorova Sehriyo. Keyslar asosida mantiqiy va kreativ fikr yuritish imkoniyatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslari. Ilm-fan va innovatsiya. Ilmiy-amaliy konferensiya. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/17435>.
3. Махаматова, F. (2020). Pedagogika fanini o'qitish jarayonida muommoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish. Arxiv Nauchных Publikatsiy JSPI.
4. Exsonova F.T. O'quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish yo'llari Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2018
5. G'afforov. Ya.X. Maktab islohati va o'qitish metodlarini takomillashtirish. Science and education. Sgientific Journal. 2020, 482.
6. Лямкина.О.А. Педагогическая мастерская как форма организации профессионально-творческой подготовки будущего учителя
7. Usmonboyeva M., To'rayev A. Kreativ pedagogika asoslari. o'quv –uslubiy majmua. - T.:TDPU 2016
8. Ibragimova G. (2015). Pedagogik innovatsiyalar yordamida talabalarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish. Zamonaviy ta'lim, 1(3), 50-54.
9. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. – С. 285.
10. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.
11. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол укитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. / Монография. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2016. – Б. 77

